

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Energetika fakulteti

5310200- "Elektr energetikasi" (elektr ta'minoti) bakalavr

ta'lim yo'nalishi talabasi

Choriyev Azizbek Do'lan o'g'li

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'ida qurilgan
namunaviy uylarning elektr ta'minoti.

Rahbar: _____ **Sa'dullayev Aloviddin Boboqulovich**

Ishni bajaruvchi: _____ **Choriyev Azizbek Do'lan o'g'li**

«Himoyaga ruxsat etildi»

«Himoya uchun DAK ga yuborildi»

Kafedra mudiri:

Fakultet dekani:

Imzo **dots. A.B.Sa'dullaev**
ilmiy unvoni, F.I.SH.

Imzo **dots. X. Ravshanov**
ilmiy unvoni, F.I.SH.

«_____» _____ 2018 y.

«_____» _____ 2018 y.

Qarshi 2018 yil

Mundarija.

	Kirish.....	7
I.Bob.	G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi zamonaviy loyihalar asosida qurilgan namunali yashash uylari elektr ta'minotining tavsifi.....	14
1.1	10 kV li havo liniyasi, 0.38 kV li izolyatsiyali havo liniyasi va 10/0,4 kV li transformator podstantsiyasi bo'yicha qurilishi.....	16
1.2	O'zini ushlab (tortib) turuvchi izolyatsion simli 0,38 kV li izolyatsiyalangan havo liniyalari.....	17
1.3	O'ta kuchlanishdan himoya, yerga zaminlash.....	18
1.4	Jamlangan transformator punkti. Elektr energiyani hisobga olish....	19
1.5	Elektr ta'minoti ishonchligi.....	20
1.6	Loyiha pasporti. 10 kV li havo liniyasi.....	20
II.Bob.	G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi joylashgan namunali yashash uylari elektr energiya iste'molchilarining texnik hisobi....	23
2.1	Umumiy ko'rsatmalar.....	23
2.2	Iste'molchilarni kuzatish jarayonida quyidagilar aniqlanadi.....	23
2.3	Elektr yuklamalarini hisoblash.....	24
2.4	10 kV li "Afg'onbog'" fideri tarmoqlaridagi yuklamalarni hisoblash.....	25
2.5	Keltirilgan minimal xarajatlar boyicha sim va kabellar kesimini tanlash.....	40
2.6	0,38 va 10 kV kuchlanishdagi tarmoqlarni iqtisodiy intervallar boyicha hisoblash.....	44
2.7	0,38 kV li kuchlanishdagi namunaviy uylar iste'molchilarning yuklamalari hisobi.....	51
2.8	Qisqa tutashuv tokini hisoblashlarning vazifasi va bajarish tartibi...	58
2.9	Elektr jihozlarini tanlash.....	60
III.Bob	Mehnat muhofazasi va xavsizlik texnikasi.....	62
IV.Bob	Atrof muhit muhofazasi.....	64
V.Bob.	Iqtisodiy qism.....	68
	Xulosa.....	73
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	74
	Ilova.....	77

ANNOTATSIYA

Mavzu: G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'ida qurilgan namunaviy uylarning elektr ta'minoti.

Mavzuning dolzarbligi: Na'munaviy uy joylarning elektr ta'minotini ishonchli va sifatli amalga oshirishdan iborat.

Ishning maqsadi va vazifalari :

G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunaviy uy joylarning ichki va tashqi yoritish tizimini takomillashtirish, isroflarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir.

Ishni ob'ekti va predmeti: G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunaviy uy joylar ishning tadqiq qilish ob'ektidir. Yonqishloq qishlog'idagi namunaviy uy joylarning elektr yoritish uskunalari, kommutatsiya jihozlari har rusumdagi o'tkazgichlar, kabellar ishning ehtiyojli predmetidir.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari : Tadqiqot izlanishdan, kuzatishdan, tajriba o'tkazishdan amaliyotga qo'llashdan optimal natija olishdan boshlanadi. Bu jarayonlarni faol bajarish uchun izlanish uslublari natija olish usullaridan foydalaniladi.

Uslub va usullar mavzuning asl mohiyati ochib berishga xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyati va tadbiqu : Elektr yoritish tizimida, energiya tejamkor, zamonaviy yoritgichlardan keng foydalanish. Energiya isrofini imkon qadar kamaytirish amaliy samaradorlik darajasiga etkazish mavzuni amaliy-tadbiqiy ko'rsatgichini belgilaydi.

Ishning tuzilishi va tarkibi quyidagilar :

“Nizom” talablariga muvofiq

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunaviy uy joylarning hisobiy yuklamalari aniqlandi, transformatorlar quvvati va soni, elektr ta'minoti kabellari ko'ndalang kesim yuzalari tanlandi va qisqa tutashuv toklari hisoblandi;

Xulosa va takliflar : Hisoblash va loyihalash natijalari Yonqishloq qishlog'idagi namunaviy uy joylarning elektr qurilmalarini rekonstruksiya qilish ishlarida amaliy ahamiyatga ega va shu jarayonda foydalanilishi mumkin.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi 1 – Prezidentining 2009 yil 3 avgustda qabul qilingan “Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, joylarda yakka tartibdagi zamonaviy loyiha asosida uy-joylar qurilmoqda. 2013 yilda ushbu sa'y-harakatlar davom ettirilgani holda Namunaviy loyihalar bo'yicha 10 mingta uyning barpo etilishi ko'zda tutildi va amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi 1 – Prezidentining 2013 yili 4 - yanvarda imzolangan “2013 yilda qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha individual uy-joy qurilishi bo'yicha dastur to'g'risida”gi qarorida, mamlakatimizda umumiy maydoni 997,1 gektarni tashkil etuvchi 353 ta turarjoy massivida 10 mingta uy qurilishi belgilandi va foydalanishga topshirildi. Barpo etilgan uylarning 8,51 mingtasi Osiyo taraqqiyot bankining krediti hisobiga, yana 1,49 mingta uy esa banklarning imtiyozli ipoteka krediti va Moliya vazirligining maqsadli kredit liniyasi hisobiga qad rostladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu uylar asosan Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida qurildi. O'zAning xabar berishicha, 2013 yilda Toshkent viloyatida 1050 turar-joy qurib bitkazildi. 41 aholi punktida namunaviy loyiha asosida qurilishi belgilangan ushbu uylar uchun yer tanlash va ajratish bo'yicha tuman hokimlarining qarorlari qabul qilingan. Ajratilgan 96,56 gektar yerning texnik shartlari ko'rib chiqilib, tegishli tashkilotlarda royxatdan o'tkazildi.

Keyingi yillarda respublikada qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini yaxshilash, namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisining hayoti darajasi va sifatini oshirish, qishloqda muhandislik va transport kommunikatsiyalarini, ijtimoiy infratuzilma obektlarini jadal rivojlantirish bo'yicha ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Faqat 2009-2016-yillarda qishloq joylarda 1308 turar joy massivida umumiy maydoni 9 million 573

ming kvadrat metr bo'lgan 69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi.

Shu bilan birga, o'rganish yakunlari aholining real ehtiyojlarini va xarid qobiliyatini, shuningdek milliy mentalitetni va qishloq joylarda yashash sharoitlarini to'liq hisobga oluvchi qurilishning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Qishloq aholisining zamonaviy va arzon uylarga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyoji imtiyozli kredit berishning yuqori darajadagi shartlarini joriy etishni, energiyani tejaydigan materiallar va asbob-uskunalarining yangi turlaridan foydalanishni yanada kengaytirishni, shuningdek barpo etilayotgan uylarning tannarxini pasaytirishni talab qilmoqda.

Ushbu muhim vazifalar hisobga olingan holda qabul qilingan qaror qishloq aholisining keng qatlamlari uchun zamonaviy va shinam uylardan foydalanish darajasini tubdan oshirishga, yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga va qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan. Qaror to'plangan tajribani o'rganishni hisobga olib qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishiga yangicha yondashuvni mustahkamlaydi. Qarorda besh yillik davrga mo'ljallangan qishloq joylarda arzon uylar qurishning ko'lamli Dasturini amalga oshirish nazarda tutilgan. Dasturga asos qilib olingan yangilangan namunaviy loyihalar qishloq aholisining yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablari va ehtiyojlarini to'liq hisobga oladi.

Dasturda qishloq joylarda narx parametrlari va shinamliligiga ko'ra yakka tartibdagi uy-joylar namunalarining uchta eng arzon turlarini qo'shimcha ravishda barpo etish nazarda tutiladi.

Jumladan, birinchi turi bo'yicha uch yoki to'rt yo'lakli, xo'jalik imoratlari va obod hovlilari bo'lgan ikki va uch qavatli ko'p kvartirali uylar barpo etishni nazarda tutadi. Misol uchun bunday uylarda umumiy maydoni 42,4 kvadrat metr va taxminiy qiymati 72,5 million so'm, xo'jalik imoratlari hisobga olingan holda 85,0 million so'm bo'lgan ikki xonali kvartiralar qurish rejalashtirilmoqda. O'z

navbatida, uch xonali kvartiralarining maydoni 52,4 kvadrat metr va taxminiy qiymati 88,5 million so‘m, xo‘jalik imoratlari hisobga olingan holda 100,7 million so‘m bo‘ladi. Bundan tashqari, ko‘rsatib o‘tilgan ko‘p kvartirali uylarni qurishda kvartiralar egalarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida hovlida joylashtiriladigan imoratlar – bolalar maydonchalari, dam olish uchun ayvonlar, dush va boshqalar barpo etish nazarda tutiladi.

Ikkinchi turiga muvofiq aholi zich joylashgan tumanlarda 2 sotix maydondagi yer uchastkasida barpo etiladigan bir qavatli ikki va uch xonali arzon uylar qurish mo‘ljallanmoqda. Bunday ikki xonali uylarning umumiy maydoni 53,0 kvadrat metr va taxminiy qiymati 93,8 million so‘m, xo‘jalik imoratlari hisobga olingan holda 101,5 million so‘m bo‘ladi. Uch xonali uylarning umumiy maydoni 63,5 kvadrat metr va taxminiy qiymati 111,0 million so‘m, xo‘jalik imoratlari hisobga olingan holda 118,7 million so‘m bo‘ladi. Uylarning hovlisida xo‘jalik imoratlari qurish nazarda tutiladi.

Uchinchi turi 4 sotix maydondagi yer uchastkasida barpo etiladigan umumiy maydoni 115,0 kvadrat metr bo‘lgan yagona blokka birlashtirilgan ikki qavatli to‘rt xonali uylar qurishni nazarda tutadi. Bunda ko‘rsatib o‘tilgan uylarning taxminiy qiymati 162,0 million so‘mni, xo‘jalik imoratlari hisobga olingan holda 181,8 million so‘mni tashkil etadi. Uylarning hovlisida xo‘jalik imoratlari qurish nazarda tutiladi.

Agar 2009-yilda qabul qilingan Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibda uy-joylar qurish dasturi doirasida uy quruvchining dastlabki badali 25 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yangi Dastur bo‘yicha ushbu badal birinchi va ikkinchi turdagi uylarni quruvchilar uchun atigi 15 foizni tashkil etadi. Bu arzon uylar Dasturiga qishloq aholisining keng qatlamlarini jalb etishga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, ipoteka krediti uch yillik imtiyozli davr va birinchi 5-yil mobaynida yillik 7 foiz miqdoridagi foiz stavkasi bilan 15-yil muddatga beriladi. Keyingi yillarda kreditning foiz stavkasi Markaziy bankning

hozirgi vaqtda yillik 9 foizni tashkil etadigan qayta moliyalashtirish stavkasidan ortiq bo'lmaydi.

Dasturni moliyalashtirishga faqat 2017-yilda 2 trillion 121,5 milliard so'm yo'naltiriladi, shu jumladan uy quruvchilarning mablag'lari bilan birgalikda davlat byudjetidan 350,0 milliard so'm ajratiladi, shuningdek tijorat banklarining 2 trillion so'mdan ortiq miqdoridagi kredit resurslarini jalb etish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, Dasturda 2017-yilda 15 mingta yangi uy va kvartira, shu jumladan 4608 ta birinchi turdagi, 3739 ta ikkinchi turdagi, 3672 ta uchinchi turdagi uylarni hamda 0,06 gektar maydonga 3, 4 va 5 xonali 2981 ta bir qavatli uy qurish nazarda tutiladi. Shu bilan birga yangi qurilayotgan uy-joy massivlarida faqat davlat resurslari hisobiga 415,3 kilometr suv ta'minoti tarmoqlari, 291,5 kilometr elektr ta'minoti tarmoqlari, 316,9 kilometr gaz ta'minoti tarmoqlari va 260,3 kilometr avtomobil yo'llari, shu jumladan massivlar ichida kirish yo'llari va yo'llar, shuningdek 134 ta ijtimoiy infratuzilma obektini barpo etish mo'ljallanmoqda.

Qurilish-montaj ishlari sifatiga qo'yiladigan talablarning oshirilishi Dasturning yana bir muhim xususiyati hisoblanadi. Bunda asosiy qurilish materiallari va buyumlarga qurilish-pudrat tashkilotlarining xarajatlarini optimallashtirish hisobiga barpo etiladigan namunaviy uy-joylar qiymati pasayishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, uylarning arzonligiga Dastur ishtirokchilari uchun soliq, bojxona imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berilishi tufayli ham erishiladi. Masalan, pudrat tashkilotlari arzon uylar qurish doirasida bajariladigan ishlar hajmi uchun soliqlarning barcha turlarini va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etiladi.

Ushbu Dasturning samarali amalga oshirilishi davlat tuzilmalarining alohida nazorati ostida bo'ladi, unda nazarda tutilgan ko'rsatkichlar bajarilishining tizimli monitoringi olib boriladi. Yangilangan loyihalar bo'yicha barpo etiladigan uylar o'zining narx parametrlari, sifat tavsiflari va shinamliligi bo'yicha Markaziy Osiyoda o'xshashi yo'qligini e'tirof etish zarur. Qarorning amalga oshirilishi

qishloqni obodonlashtirishning va qishloq aholisi hayot darajasini tubdan oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurish ko‘lamlarini yanada kengaytirish bo‘yicha uzviylik va izchillik yo‘lini ta’minlashga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1 – Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisdagi ma’ruzasida aytganlaridek “Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo‘naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo‘lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob’ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi. Masalan, Toshkent IES da 370 MVt quvvatga ega bo‘lgan bug‘-gaz qurilmasi barpo etildi. Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi. Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kelovatt quvvatga ega bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Hozirda bu loyiha sinovdan o‘tkazilmoqda. 2020 yilga borib mamlakatimizda har biri 100 megavatt quvvatga ega yana uchta quyosh elektr stansiyasini foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda. Birinchi navbatda Tollimarjon IESda har biri 450 megavatt quvvatga ega bo‘lgan ikkita bug‘-gaz turbinasi, Angren IES 150 megavatt quvvatga ega bo‘lgan energiya bloki ishga tushirish zarur” deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Bundan tashqari kelajakda O‘zbekiston Respublikasida elektr energetikasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan yirik loyihalar quyidagilardan iborat: 100 MVt quvvatli yana uchta quyosh elektr stansiyasini qurish; Toshkent IESni 370 MVt quvvatli BGQ hisobiga modernizatsiyalash; Toshkent IEMni 3 ta 27 MVt quvvatli GTQ hisobiga modernizatsiyalash; 2 ta 450 MVt quvvatli BGQga ega bo‘lgan To‘raqo‘rg‘on IESni qurish; Yangi Angren IESning 1-5 blokларini butun sutka davomida ko‘mir yoqishga o‘tkazish; Modernizatsiyalash xisobiga Chorbog‘ GESning o‘rnatilgan quvvatini 45 MVt ga oshirish; Modernizatsiyalash hisobiga

Toshkent GESlari kaskadining o'rnatilgan quvvatini 8,3 MVt ga oshirish; Modernizatsiyalash hisobiga Quyi Bo'zsuv GESlari kaskadining o'rnatilgan quvvatini 2,5 MVt ga oshirish; To'raqo'rg'on-500 podstantsiyasini qurish; Yangi Angren – To'raqo'rg'on 500 kV HLni qurish; To'raqo'rg'on - O'zbekiston 500 kV HLni qurish.

2030 yilga borib 2016 yilga nisbatan yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini ikki barobarga qisqartirish bo'yicha qo'yilgan topshiriqlarni hisobga olgan holda, korxona va tashkilotlarga energiya sarfi hajmini qisqartirish bo'yicha aniq maqsadli parametrlarni belgilash zarurati mavjud. Ushbu muhim vazifalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2017-2021 yillarda yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va qayta tiklanuvchi manbalar energiyasidan foydalanishni kengaytirishga yo'naltirilgan. Yaqin istiqbolda ustuvor vazifa sifatida iqtisodiyotning energiya va resurs sig'imini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiyani tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, mehnat samaradorligini oshirish ko'zda tutilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan jadal foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish issiqlik va elektr energiyasi kabi energiya sanoat turlarini olishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu uglevodorodlarning o'rnini bosishga va ularni yuqori likvidli mahsulotlar, xususan, polimerlar, yoqilg'ining sintetik turlarini ishlab chiqarishga yo'naltirish imkonini beradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimning dolzarbligi shundan iboratki barcha qabul qilingan texnologik yechimlar va texnik iqtisodiy hisoblashlar natijasida G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunali uy – joylarning elektr iste'molchilarni ishonchli, sifatli va uzliksiz elektr taminotini amalga oshirishdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Barcha texnik iqtisodiy echimlar asosida G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi eksperimental uy – joylar elektr iste'molchilarining elektr ta'minotini

amalgam oshirish uchun zarur bo'lgan sim va kabeller rusumini tanlash, ularni ruxsat etilgan kuchlanish isrofiga tekshirish, kuch transformatori soni va quvvatini tanlash, qisqa tutashuv toklarini hisoblash, kommutasion jihozlar (avtomat, uzgich va saqlagichlarni effektivligini hisoblash) va tanlash, yoritgichlarni tanlash, iqtisodiy hisoblashlarni bajarishdan iborat;

- xulosa va takliflar kiritish;

- energya tejamkorligi va ishonchliligi masalalariga etibor qaratish;

Ushbu bitiruv malakaviy ishining G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunali uy – joylar iste'mollarining tavsifi qismida elektr iste'molchilari to'g'risida va ularning yuklamalari to'risida batavsil ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunali uy – joylar iste'mollarining texnik hisobi tahlili qismida yuqorida keltirilgan barcha hisoblashlarni bajaramiz.

I.BOB. G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi zamonaviy loyihalar asosida qurilgan namunali yashash uylari elektr ta'minotining tavsifi

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunali yashash uylari elektr ta'minotining ishchi loyixasi quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

- Loyixani bajarish uchun buyurtma va Qashqadaryo xududiy elektr tarmoqlari "OAJ" bilan tuzilgan shartnoma № 06/225, 23.01.2015 yil.
- Loyihalash uchun topshiriq 03.03.2015 y № 04/55-110 sonli texnik shartlari.
- 2015 yilda bajarilgan qidiruv materiallari va energiya iqtisodini kuzatishlari.
- Loyihalash uchun xarakatdagi xujjatlar (qurilish va elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha).
- Iste'molchilar elektr ta'minoti ishonchliligini meyoriy sathini ta'minlash bo'yicha topshiriqlar.
- Birinchi navbatda ajratishlar bo'yicha qishloqning bosh rejasi.

Loyixalangan 0,38 kV va 10 kV li havo uzatish liniyalariga ulanadigan iste'molchilar elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha III kategoriyaga(aholi yashaydigan uylar), suv yig'uvchi inshootlar esa I kategoriyaga kiritiladi.

Elektr yuklamalar sim va kabellar kesim yuzalarini tanlash uchun havo liniyasini ishga tushirish yilidan boshlab kelajakdagi 10 yil uchun qabul qilingan va transformator quvvatini tanlash uchun 5 yil uchun qabul qilingan (NTS AO – 14.01.2011 punkt).

Ushbu loyihada suv inshooti va aholi yashaydigan uylarni elektr ta'minoti uchun (qurilishning 1-navbatida) KTP-160 kVA li transformator podstantsiyasini sotib olish va o'rnatilish nazarda tutiladi.

Transformator podstansiyasini o'rnatilish joyi uning turi va quvvati (suv inshoati uchun) va shuningdek aholi yashaydigan uylarning yuklamalari "Qishloq qurilish loyiha"t ma'lumotlari bo'yicha qabul qilingan.

Loyihalanadigan 10 kV li havo elektr uzatish liniyasining umumiy uzunligi 5,0 km, izolyatsiyali havo liniyasining uzunligi 0,38 kV da 2,0 km.

Ushbu loyihada birinchi navbatda qurilishi mo'ljallanayotgan 80 ta yashash uylarining elektr ta'minoti nazarda tutiladi.

Loyihalanadigan 10 kV li havo liniyasi 110/10 kV li "Markaziy" podstansiyasining 10 kV li taqsimlash qurilmasidan chiquvchi "Afg'onbog" fideriga shoxoblanish orqali ulanadi.

Har bir yashash uyi uchun hisobiy yuklama "Qashqadaryo qurilish loyiha servis" M.CH.J ma'lumotiga asosan 5.1 kW qabul qilingan.

Elektr energiya iste'molini hisobga olish "Qishloq qurilish loyiha" institutining loyihasiga asosan har bir xonadonda o'rnatiladigan elektron hisoblagichlar bilan bajariladi.

Elektr energiyaning umumiy hisobi DTS 541U rusumidagi podstansiyada o'rnatilgan loyihaviy yacheykalardagi elektron hisoblagichlar bilan amalga oshiriladi.

Loyihada "Qashqadaryo elektr tarmoqlari" OAJ buyurtmasi bo'yicha "ACKUE" sistemasiga ulanish orqali elektr energiya hisobi nazarda tutiladi.

Elektr nagruzkalarining asosiy hisoblari, simlarning rusumi va kesimi, qisqa tutashuv toklari hisobi. Rele himoyasi elektron hisoblash mashinalarida bajarilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududlarini klimatik sharoitlar bo'yicha rayonlashga asosan muzlik va 5 yilda bir marta takrorlanadigan shamol bo'yicha 0,4 kV li havo uzatish liniyasi uchun quyidagi klimatik shartlar qabul qilingan;

-Muzlik-II bo'yicha – 5 mm.

-Shamol III. Bo'yicha – 27 m/s.

Shuningdek 10 yilda bir marta takrorlanadigan sharoitlar uchun 10 kV li havo uzatish liniyasi bo'yicha.

-Muzlik-II bo'yicha - 5 mm.

-Shamol III. Bo'yicha – 29 m/s.

1.1. 10 kV li havo liniyasi 0,38 kV li izolyatsiyali havo liniyasi va 10/0,4 kV li transformator podstansiyasi bo'yicha qurilish qarorlari va konstruktiv bajarilishi.

Loyihalanadigan havo liniyalari va transformator podstansiyasining tipovoy qurilish konstruksiyalari qurilish tashkilotining 01.12.2009 yildagi №20-15-335/1194 xati asosida qabul qilingan. Loyihalanadigan 0.38 kV li havo liniyasini bajarish uchun o'rnatishga tipovoy loyiha 3,407,1-136 3 ishlab chiqishdagi SV 95-2 rusumidagi temir betonli tayanchlar, ustunlar bilan qabul qilingan 10 kV li havo liniyalari uchun tipovoy loyiha 3,407,1-136 1 va 5 ishlab chiqishlarga asosan temir betonli tayanchlar SV 105-3,5 va SV 105-5 ustunlar bilan qabul qilingan.

Murakkab tayanchlar 2,1 m chuqurlikda o'rnatiladi.

- 0.38-10 kV havo elektr uzatish liniyasi trassasidagi tayanchdan bajariladi, hisobiy oraliqni nazarda tutib va aholi yashash uylariga simlarni qulayroq kirishini ta'minlash hisobga olinadi. Simlarni kesim yuzasini tanlash 0,38 kV li tarmoqlarda kuchlanish maksimal isrofidan kelib chiqqan holda quyidagi chegaralarda;

-kommunal-maishiy iste'molchilarni ta'minlovchi liniyalar uchun normalga nisbatan 8% (KTPS-88.P.1.8) bajarilgan.

Hisobiy oraliqlar klimatik sharoitlar rayoni bo'yicha qabul qilingan.

0,4 kV li havo liniyasining SV 95-2 ustunli tayanchlar ushbu loyihada traverssiz qabul qilinadi (izolyatorsiz va boshqa materiallarsiz), negaki bu tayanchlarda yalang'och simlar emas balki o'zini ushlab (tortib) turuvchi simlar osiladi.

Bu tayanchlarda ushlab turuvchi, tortib turuvchi, shoxobchali va ulanuvchi qisqichlar va liniya armaturalarining boshqa elementlari qo'llaniladi.

Ankerli tayanchlar uchun kronshteynlar qo‘llaniladi.

10 kV li havo liniyalari uchun metal konstruksiyalarni tayyorlash, ularni korroziyadan himoyalash OST 32-72-64 ga (P,2,3 P3. 8- chiqishi “tayanchlarning po‘lat konstruksiyalari”) mos kelishi zarur.

1.2. O‘zini ushlab (tortib) turuvchi izolyatsion simli 0,38 kV li izolyatsiyalangan havo liniyalari (SIP-samonesushiye izolirovanniye provoda dlya VLN 0,38 kV).

Ushbu loyihada 0,4 kV SIP simlari GOST 52373-2005 bo‘yicha temir beton tayanchlarda osiladi. Simlarni loyihalash jarayonida quyidagi elektr hisoblashlar bajariladi;

- SIP simlarni kesimini tanlash, faza simlarini aniqlash, elektr energiya sifatini talab etuvchi tarmoq o‘tkazish qobiliyatini zaruriylikini tashkil etish uchun;
- Kuchlanish isrofi hisobi va elektr energiya iste’molchilaridagi nominal kuchlanishdan ruxsat etilgan kuchlanishga ochishni tekshirish;
- Normal va avariya dan keyingi rejimlarda qizish shartlari bo‘yicha uzoq davom etadigan yuklama toklarini aniqlash;
- Bir fazali va ko‘p fazali qisqa tutashuvlarda (saqlagichlar, avtomatik uzgichlar) himoyani ishlash shartlarini tekshirish;
- Yashindan himoya vositalarini va yerga zaminlash qurilmalarini tanlash;
- SIP ning konstruktiv elementlarini tanlash (qurilishda va ekspluatatsiyada ularni ishonchligini ta’minlash).

Elektr uzatish liniyasi havo liniyasidan iborat bo‘lib, SIP simlaridan tashkil topadi, o‘zini tortib turuvchi nol simi izolyatsiyani va bitta sim tashqi ko‘chani yoritish uchun foydalaniladi.

O‘zini ushlab turuvchi nol simi SIP ning butun uzunligi bo‘yicha yerga mahkam zaminlangan o‘tkazgich vazifasini o‘taydi.

SIP bo'yicha bajarilgan hisoblashlar natijasida SIP simlari kesimi (tanlangani) PUE talablarini to'liq qoniqtiradi.

Elektr iste'molchilari ishini normal ta'minlash uchun, elektr xavfsizlik meyoriy sathini va atmosfera o'ta kuchlanishidan himoyalash uchun izolyatsiyali havo liniyalarida 0,4 kV (elektr tarmoqlari yerga mahkam zaminlangan) yerga zaminlash qurilmalari bajariladi va ular quyidagilarga mo'ljallanadi;

- SIP simlari nolini qaytish zaminlash uzun;

- Yashindan himoyali zaminlash.

Tayanchlarni zaminlash 3.407-150 rusumli xujjatlar bo'yicha bajariladi. "Kuchlanishi 0,38, 6-10; 20-35 kV li havo elektr uzatish liniyalarini zaminlash qurilmalari". Oraliq va ankerli tipdagi tayanchlarni joylashtirish trassa bo'yicha ularni tipi, hisobiy oralig'i qabul qilingan klimatik sharoitlar uchun rejada keltiriladi.

Uylarga magistraldan shoxobchalanish orqali kirish uchun SIP-4 rusumidagisimlar qo'llaniladi. Bu simlar kesimi 16 va 25 mm² bo'lgan ikkita o'ralgan alyumin simdan tashkil topadi.

Loyihalanadigan liniyada VLI 0.38 kV li temir beton tayanchlarida OAO RAO "UES Rossiya" filial OAO "NTS Energetika" ROSEP-SIP ning rusumli loyihasi bo'yicha qabul qilingan. SIP simlari 2007 yildan boshlab SPOOO "HI-TECH KABEL" da , Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Guliston shahri Chimkent ko'chasi trakttor zavodi "O'Z BMZ" shuningdek "O'zbek kabel" Toshkent shahrida tayyorlanadi. Simlarni mahkamlash uchun garnituralar "Tayko elektronika " kompaniyasining energetika bo'limi tomonidan yetkaziladi.

1.3. O'ta kuchlanishdan himoya, yerga zaminlash.

0,38 kV li izolyatsiyali havo liniyasi tayanchlarida PUE talablariga mos holda chaqmoqli o'ta kuchlanishdan himoyalash uchun mo'ljallangan yerga zaminlash qurilmalari bajarilishi zarur. Ular orasidagi masofa 200 metrdan ortiq emas, oxirgi tayanchni yerga zaminlash qurilmasidan qo'shni zaminlash

qurilmasigacha bo'lgan eng katta masofa 100 metrdan ortmaydi. Bu yerga zaminlash qurilmalarining qarshiliklari 30 Omdan yuqori bo'lmasligi zarur. VLI 0,38 kV ning oxirlarida (yoki shoxobchalarda) 200 metrdan ortiq uzunlikdagi shuningdek havo liniyasining elektr qurilmalarga kirish joylarida nollash kerak bo'lgan joylarda ishchi nol simi qaytadan zaminlanadi.

Har bir VLI ning zaminlagichlaridagi elektr toki oqishining umumiy qarshiligi yilning istalgan paytida 30 Omdan oshmasligi zarur. Takroriy va yashindan himoya zaminlagichlarga nol simi va metall elementlar hamda tayanchlar armaturasi ulanadi. Tuproqning solishtirma ekvivalent qarshiligi hisoblashlarda $100 \text{ Om} \cdot \text{m}$ qabul qilingan.

10 kV li havo liniyasidagi temir-beton tayanchlar ag'oli istiqomat joylarida zaminlanishi shart. Aholi istiqomat qiladigan joylardagi tayanchlar uchun qarshilik qiymati meyyorlanmaydi va tayanchlarni konstruktiv bajarilishi bilan amalga oshiriladi.

1.4. Jamlangan transformator punkti. Elektr energiyani hisobga olish.

10/0,4 kV li transformator podstantsiyasini loyihalash topshirig'iga asosan GKTP rusumidagi transformator qabul qilingan. GKTP transformatori Chirchiq tarnsformator zavodida ishlab chiqarilgan. Transformator quvvati qishloq xo'jalgi elektr tarmoqlaridagi podstantsiyalardagi tarnsformatorlarni o'rnatilgan quvvatini tanlash bo'yicha metodik qo'llanmalarga asosan mos ravishda aniqlangan. Tuproq harakteristikalarini hisobga olgan holda GKPT yig'ma temir-betonli plitalardanyig'ilgan fundamentga o'rnatilishi qabul qilingan, OAO Sel energo projektining rusumli chizmalari bo'yicha. Elektr energiya hisobi transformator punktining past kuchlanishli o'itiga o'rnatilgan DTS-541U tipidagi elektron hisoblagichlar bilan amalga oshiriladi. Yashash uylaridagi aktiv elektr energiya hisobi har bir uyda o'rnatiladigan hisoblagichlar bilan amalga oshiriladi.

Elektr energiyaning umumiy hisobi podstantsiyadagi loyihalanadigan yacheykalarda o'rnatiladigan DTS-541U tipidagi elektron hisoblagichlar bilan amalga oshiriladi.

1.5. Elektr ta'minoti ishonchligi.

Birinchi kategoriya(toifa) iste'molchilarining elektr ta'minoti PUE-0,7,1,2,18, uchunchi kategoriya iste'molchilarining elektr ta'minoti esa PUE-0,7,1,2-20 mos holda ko'rib chiqiladi. Tarmoq ish rejimi radial sxema bo'yicha, iste'molchilar elektr ta'minoti 10 kV li havo liniyasi bo'yicha bajariladi. 10/0,4 kV li kuch transformatorining himoyasi PKT-10 kV $I_{pl\ vet}=16$ A li saqlagich orqali amalga oshiriladi. Loyihalanadigan elektr tarmoqlarni ekspluatatsiya qilishini tashkil etish "O'zbekiston Respublikasi tarmoq va stansiyalarnin texnik ekspluatatsiya qoidalari" talablarini bajarish asosida va "Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari" Uzgosenergo nadzor mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Loyihalanadigan VL 0,38 kV va VL-10 kV li elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish G'uzor tumani elektr tarmoqlari tomonidan amalga oshiriladi.

1.6. Loyiha pasporti. 10 kV li havo liniyasi.

1. Qurilish turining xarakteristikasi-yangi qurilish
2. Kuchlanishi, kV – 10
3. Klimatik shartlar; - 2
 - Muzlik bo'yicha rayon - 2
 - Shamol bo'yicha rayon - 3
4. Chaqmoq o'rtacha davomiyligi, (soat) - 13
5. Liniyaning qurilish uzunligi, jami, km - 0,13
6. 10 kV li havo liniyasining uzunligi, km - 0,13

Aholi yashamaydigan joylardan, km - aholi yashaydigan harakatdagi havo liniyasi bo'yicha , km –

7. Ifloslik darajasi III toifaga km -13
8. Simlarning rusumi, kesimi , uzunligi , km - AS-35/6,2
(bir simli hisoblashlardi) , M-390
9. Tayanch materiallari: - temir-beton
10. Ustunlar dona ; S 105-3,5-10
11. Tayanchlar soni: dona
Oraliq tayanchlar -24
Oraliq burchak tayanchlar - 6
Simlarni ankerli qotirish - 2
12. Yerga zaminlash uchun metall, T - 0,195

0,38 kV li havo liniyasi;

1. Qurilish turi xarakteristikasi - yangi qurilish.
2. Kuchlanish, kV - 0,38
3. Klimatik shartlar;
Muzlik bo'yicha rayon - 2
Shamol bo'yicha rayon - 3
4. Chaqmoq o'rtacha davomiyligi, (soat) - 13
5. Liniyaning qurilish uzunligi, jami, km - 2,0
Shu jumladan;
Aholi turar joyidan, km - 2,0
Ifloslik darajasi III darajali joydan, km -2,0
0,38 kV li havo liniyasining jami uzunligi, km - 2,0
6. Kirish joylari, dona - 81
7. Simning rusumi, kesimi, uzunligi-AS-50
(bir simli bajarishda, m) - 8360
8. Tayanch materiali: temir-beton
9. Ustunlar dona ; SV 95-2 - 75

10. Tayanchlar soni: dona

Normal o'lchamdagi oraliq tayanchlar -45

Oraliq burchak tayanchlar - 1

Simlarni ankerli qotirish - 14

11. Yerga zaminlash uchun metall sifatidi, T - 0,164

12. 10/0,38 kV li quriladigan podstansiya, dona KTPS-160/10/0,4-U1 transformator

TMZ-160/10-66U1 rusumida - 1.

II.BOB. G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'ida qurilgan namunalı yashash uylari elektr energiya iste'molchilarining texnik hisobi qismi.

2.1. Umumiy ko'rsatmalar.

Loyihalanadigan transformator podstansiyalari, dizel stansiyalari, elektr uzatish liniyalarining elektr yuklamalarini aniqlashda ushbu loyihalanadigan elektr qurilmalarini xizmat doirasida bo'lgan barcha elektr iste'molchilari qvysi sohaga tegishligidan qatıy nazar hisobga olinishi kerak. Qishloq xo'jaligiga ta'luqli bo'lmagan iste'molchilarning hisobiy yuklamalari tasdiqlangan hisoblashlar(iste'molchi tomonidan) asosida, buyurma bilan hisobga olinadi. Elektr yuritmalar kelajakdagi 5-7 yilda iste'molchilarni rivojlanishini hisobga olgan holda, elektr energiya iste'molchilarini texnik – iqtisodiy kuzatishlar asosida aniqlanadi.

2.2. Iste'molchilarni kuzatish jarayonida quyidagilar aniqlanadi;

- Uylar soni va bir uy yoki bitta kvartirini bir yillik energiya iste'moli;
- Aholi soni;
- Kommunal –maishiy ,ishlab chiqarish.umum jamoa iste'molchilari (binolarni sig'dira olishligi,mexanizatsiya vositalari,qurilmalari, va h.k).

Shuningdek kuzatish, jarayonida iste'molchilarning toifaligi, zaxiralash manbalari, loyihalanadigan elektr qurilmasini elektr ta'minoti manbasi va boshqalar, transformatorlar soni va quvvatini tanlash uchun podstansiyani joy maydonini hol etish uchun elektr uzatish liniyasini konfiguratsiyasi va kuchlanishini aniqlash uchun tayanchlar turi, sim rusumi va kesimini aniqlash hisobga olinadi.

2.3. Elektr yuklamalarini hisoblash.

Elektr ta'minoti tizimlarini loyihalash tajribasida elektr yuklamalarni aniqlashning har xil metodlari qo'llaniladi. Bu metodlar asosiy va yordamchi metodlardan iborat. Asosiylarga hisoblashlarning quyidagi metodlar kiradi:

- o'rnatilgan quvvat va talab koeffitsenti bo'yicha.
- o'rtacha quvvat va xisobiy yuklamaning o'rtacha yuklamadan farqi bo'yicha (statistik metod).
- o'rtacha quvvat va maksimum koeffitsenti bo'yicha (tartiblashtirilgan diagrammalar) metodi.

Qo'shimcha metodlarga quyidagi hisoblash metodlari kiradi.

-ma'lum bir vaqt maboynida berilgan xajmda chiqarilgan maxsulotga nisbatan maxsulot birligiga elektr energiyaning solishtirma sarfi bo'yicha.

-ishlab chiqarish maydoni birligiga nisbatan solishtirma yuklama bo'yicha.

U yoki bu metodning qo'llanilishi xisoblashlarning ruxsat etilgan xatoligi bo'yicha aniqlanadi.

Loyihalash jarayonida kattalashtirilgan hisoblashlarga alohidagi gurux iste'molchilarning umumiy o'rnatilgan quvvatidan foydalaniladi. Alohidagi iste'molchilar ma'lumotlaridan foydalanishga asoslangan metodlar aniqroq metodlarga kiradi.

Ushbu BMI ni bajarishda talab koeffitsenti metodidan foydalanamiz.

Bu metod iste'molchilar ko'rsatgichlarini aniqroq aniqlashni qulayligi bo'yicha ajratib turadi. Bu metod bo'yicha hisobiy yuklamani aniqlash uchun guruh iste'molchilarning o'rnatilgan quvvatini, quvvat koeffitsenti $c_{o\phi}$ ni va talab koeffitsenti K_m ni bilish kerak. Bu ma'lumotlar maxsus texnik ma'lumotnomalarda, ishchi loyihalarda iste'molchilar xarakteriga ko'ra keltiriladi.

Guruh iste'molchilari uchun hisobiy yuklamalar quyidagi ifodalar bo'yicha hisoblanadi. (Ad8)

Hisobiy aktiv quvvat $P_x = k_m \cdot P_{nom}$; kVt (2,1)

Hisobiy reaktiv quvvat $Q_x = P_x \cdot \operatorname{tg} \varphi$; kVar (2,2)

Hisobiy to'la quvvat $S_x = \sqrt{P_x^2 + Q_x^2}$; kVA (2,3)

bunda $\operatorname{tg} \varphi$ shu gurux iste'molchilarning quvvat koeffitsientini $\cos \varphi$ ga mos keladi.

2.4.10 kV li "Afg'onbog'" fideri tarmoqlaridagi yuklamalarni hisoblash.

G'uzor tumanidagi Yonqishloq qishlog'idagi namunali yashash uylari elektr ta'minoti "Afg'onbog'" fideri orqali G'uzor markaziy 110/10 kV li podstantsiyasidan amalga oshiriladi.

Iste'molchilar kunduzgi va kechki yuklamalar maksimumida qatnashish koeffitsiyentlari [ad.23 1.13 jadval] bo'yicha keltirilgan.

1-jadval.

Iste'molchi	Kuch. kechki	Kuch. kunduzgi
Yashash uylari	1	0,3
Sanoat iste'molchilari	0,6	1
Elektr plitali yashash uylari	1	0,5

Iste'molchilarning dastlabki ma'lumotlari sifati 1-rasmda keltirilgan ta'minot sxemasi kechki maksimal yuklamalar keltirilgan. Yuklamalar xarakteristikasiga ko'ra iste'molchilarning kunduzgi maksimal yuklamalarini 1-jadvalda keltirilgan qatnashish koeffitsiyentlari bo'yicha aniqlaymiz (Fider boshidan oxiriga qarab yo'nalishda).

Uchastka yuklamalarini hisoblash uchun "Afg'onbog'" fiderini kunduzgi va kechki maksimal yuklamalari ko'rsatilgan sxemasi.

Kasr chizig'ining suratida kunduzgi maksimal yuklama, kasr chizig'ining maxrajida esa kechki maksimal yuklamalar ko'rsatilgan.

Sxemadagi belgilanishlar.

№ - 131 – TP tartib raqami.

40 – Kunduzgi hisobiy yuklama. kVA.

100 – Kechki hisobiy yuklama. kVA.

Sxemadagi belgilanishlar.

1. liniya uchastkalari bo'yicha elektr yuklamalar hisobi.

Uchastka 11 – TP 131

$S_d = 40 \text{ kVA}$; $S_v = 100 \text{ kVA}$; $S_d / S_v = 40 / 100 = 0,4$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 11 – TP 426

$S_d = 25,2 \text{ kVA}$; $S_v = 63 \text{ kVA}$; $S_d / S_v = 25,2 / 63 = 0,4$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10 – 11.

Bu uchastkadagi 11 – nuqtada 2 ta TP ulanganligi uchun ularning kunduzgi va kechki yuklamalarini bir vaqtlik koeffitsientini hisobga olib qo'shamiz $k_0 = 0,9$. [Ad 19. ilova 8].

$$S_{d10-11} = k_0 \cdot (S_{d11-TP131} + S_{d11-TP426}) = 0,9 \cdot (40 + 25,2) = 0,9 \cdot 65 = 58 \text{ kVA};$$

$$S_{v10-11} = k_0 \cdot (S_{v11-TP131} + S_{v11-TP426}) = 0,9 \cdot (100 + 63) = 0,9 \cdot 163 = 147 \text{ kVA};$$

$S_d / S_v = 58 / 147 = 0,39$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/10 – TP 472

$S_d = 40 \text{ kVA}$; $S_v = 40 \text{ kVA}$; $S_d / S_v = 40 / 40 = 1$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,78$; $\cos \varphi_v = 0,87$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/10 – TP 139

$S_d = 64 \text{ kVA}$; $S_v = 160 \text{ kVA}$; $S_d / S_v = 64 / 160 = 0,4$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/9 – 10/10.

Bu uchastkadagi 10/10 – nuqtada 2 ta TP ulanganligi uchun ularning kunduzgi va kechki yuklamalarini bir vaqtlik koeffitsientini hisobga olib qo'shamiz $k_0 = 0,9$. [Ad 19. ilova 8].

$$S_{d10/9 - 10/10} = k_0 \cdot (S_{d10/10-TP472} + S_{d10/10-TP139}) = 0,9 \cdot (40 + 64) = 0,9 \cdot 104 = 93,6 \text{ kVA};$$

$$S_{v10/9 - 10/10} = k_0 \cdot (S_{v10/10-TP472} + S_{v10/10-TP139}) = 0,9 \cdot (40 + 160) = 0,9 \cdot 200 = 180 \text{ kVA};$$

$S_d / S_v = 93,6 / 180 = 0,52$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/9 – TP 136

$S_d = 25 \text{ kVA}$; $S_v = 63 \text{ kVA}$; $S_d / S_v = 25 / 63 = 0,4$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/8 – 10/9.

Bu uchastkadagi 10/9 – nuqtada 3 ta TP ulanganligi uchun ularning kunduzgi va kechki yuklamalarini bir vaqtlik koeffitsientini hisobga olib qo'shamiz $k_0 = 0,85$. [Ad 19. ilova 8].

$$S_{d10/8 - 10/9} = k_0 \cdot (S_{d10/9-10/10} + S_{d10/9-TP136}) = 0,85 \cdot (93,6 + 25) = 0,85 \cdot 104 = 101 \text{ kVA};$$

$$S_{v10/8 - 10/9} = k_0 \cdot (S_{v10/9-10/10} + S_{v10/9-TP136}) = 0,85 \cdot (180 + 63) = 0,85 \cdot 243 = 206 \text{ kVA};$$

$S_d / S_v = 101 / 206 = 0,49$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/8 – TP 333

$S_d = 40 \text{ kVA}$; $S_v = 40 \text{ kVA}$; $S_d / S_v = 40 / 40 = 1$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,78$; $\cos \varphi_v = 0,87$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/7 – 10/8.

Bu uchastkadagi 10/9 – nuqtada 4 ta TP ulanganligi uchun ularning kunduzgi yuklamalarini bir vaqtlik koeffitsientini hisobga olib qo'shamiz $k_0 = 0,83$. [Ad 19. ilova 8]. Bu uchastkadagi kechki yuklamalar nisbati 4 – martadan oshiq bo'lganligi uchun katta yuklamaga kichik yuklamaning quvvat qo'shimchasini qo'shib [Ad 19. 5 – ilova] dan yozamiz.

$$S_{d10/7 - 10/8} = k_0 \cdot (S_{d10/8-10/9} + S_{d10/8-TP333}) = 0,83 \cdot (101 + 40) = 0,83 \cdot 141 = 117 \text{ kVA};$$

$$S_{v10/7 - 10/8} = S_{v10/8-10/9} + \Delta S_{v10/8-TP333} = 206 + 28,4 = 234 \text{ kVA};$$

Bu yerda

$$S_{v10/8-TP333} = 40 \text{ kVA} \quad \text{da} \quad \Delta S_{v10/8-TP333} = 28,4 \text{ kVA};$$

$S_d / S_v = 117 / 234 = 0,5$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/7 – TP 388

$S_d = 25 \text{ kVA}$; $S_v = 63 \text{ kVA}$; $S_d / S_v = 25 / 63 = 0,4$ bo'lganda [Ad 14 15.9 jadval] dan $\cos \varphi_d = 0,88$; $\cos \varphi_v = 0,93$ ekanligini aniqlaymiz.

Uchastka 10/6 – 10/7.

Bu uchastkadagi 10/7 – nuqtada 5 ta TP ulanganligi uchun ularning kunduzgi va kechki yuklamalarini bir vaqtlik koeffitsientini hisobga olib qo'shamiz $k_0 = 0,8$. [Ad 19. ilova 8].

$$S_{d10/6 - 10/7} = k_0 \cdot (S_{d10/7-10/8} + S_{d10/7-TP388}) = 0,8 \cdot (117 + 25) = 0,8 \cdot 142 = 114 \text{ kVA};$$

$$S_{v10/6 - 10/7} = k_0 \cdot (S_{v10/7-10/8} + S_{v10/7-TP388}) = 0,8 \cdot (234 + 63) = 0,8 \cdot 297 = 238 \text{ kVA};$$

